

MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI MAZMUNI

Nurulloyev Toxir Nutfulloyevich

Renessans ta'lim universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15836515>

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonning axborotni izlash, qabul qilish, tahlil qilish, baholash va mas'uliyat bilan tarqatish qobiliyati, zamonaviy jamiyatda shaxsning axborot oqimida yo'nalish topishi va media muhitda ongli ishtirok etishi va turli axborot manbalari, xususan, televidenie, internet, ijtimoiy tarmoqlar, gazetalar va boshqa ommaviy axborot vositalarining mazmunini tanqidiy baholash va tushunish qobiliyatlari, hamda ma'lumotlarni qidirish, ishlatish, tahlil qilish va ularning haqqoniyligini aniqlashga oid bilim va ko'nikmalarni qamrab olish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: axborot, media, interfaollik, internet, kommunikatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari,

«Axborot» atamasi ko'plab tavsifga ega bo'lib, u ma'lumotlar, tadqiqot jarayonida olingan bilimlar, tajriba yoki tahsil olish, shuningdek, signal yoki belgilarni anglatishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, axborot— bu to'plangan, qayta ishlangan va izohlangan, foydalanish uchun qulay bo'lgan ko'rinishda taqdim etiladigan ma'lumotlardir. Axborotning yana bir boshqacha tavsifi — «tushunishga oson shaklda berilgan bilimlar»dir. O'tmishda mazkur tushuncha ortida odamlar tomonidan bir-biriga og'zaki, yozma va boshqa usulda beriladigan ma'lumotlar tushunilgan. Keng ma'noda axborot ta'rifi kibernetika fanida keltirilgan. Uning asoschisi Norbert Vinerning yozishicha, «Axborot — bu biz unga va uning bizning hissiyotlarimizga moslashuvchi, tashqi dunyodan olingan mazmun tavsifidir». Axborot tushunchasiga juda ko'p olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan: Axborot — «bizni o'zgartiradigan» tushuncha (Stafford Beer, 1979). Axborot — bu «insonning ongiga yetib boradigan va uning bilimini oshiradigan» tushuncha.

«Axborot — bu uni oladiganlar uchun ma'noga ega shaklga keltirilgan va joriy yoki keyingi harakatlar yoki qarorlar uchun haqiqiy yoxud potensial qiymatga ega ma'lumotlar». Boshqa tomondan, «axborot» atamasi axborot berish, axborotni uzatish va uni tarqatish ma'nosida ham qo'llaniladi. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, axborot deb oldindan ma'lum bo'lmagan biror narsa haqidagi xabar yoki ma'lumotlar tushuniladi. Axborot muhim unsur bo'lib, usiz nafaqat alohida insonni, balki jamiyatni ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Masala, uning sifati, mazmuni, ohangi va yo'naltirilganligidadir. Shu bois axborot chegaralangan, qalbakilashtirilgan, tezkor, dolzarb va h.k. bo'lishi mumkin. Media va boshqa axborot manbalari tomonidan taqdim etilayotgan axborotdan to'g'ri foydalanish, insonlarning o'zida axborotga bo'lgan ehtiyojini anglashi, ma'lumotni topish va unga egalik qilish hamda sifatini baholash imkonini beradi. Aksariyat hollarda iste'molchi u yoki bu maqsadga erishish uchun nimani bilishi zarurligini anglaydi va o'z qidiruv ishini ma'lum bir natijaga qaratadi. Masalan, inflyatsiya sharoitida har bir fuqaroni narx-navoning o'sishi qiziqtiradi. Abiturient oliy ta'lim muassasasiga kirish qoidalariga oid barcha ma'lumotni o'rganadi. Tadbirkor va moliyachini, birinchi navbatda, birjadagi narx kotirovkasi qiziqtiradi. Insonga u yoki bu axborot kanaliga murojaat qilish maqsadi tushunarli. Tanlov xabarining to'laligi, manbaning ishonchliligi yoki qiziqarliligi va hokazolar asosida amalga oshiriladi. Ammo bu yerda ham manbaning ishonchliligini chuqur o'rganish lozim. Masalan, o'zini adabiy tanqidchi deb tanishtirgan

shaxsning yangi adabiyot bo'yicha tavsiyalari, avvalo, muayyan maqsadda berilgan bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda axborot materiallarining, kontent va resurslarning haddan tashqari keng va turli-tuman to'plami mavjud, ayniqsa Internetda, ularning aniqligi, ishonchliligi va qiymati turlicha. Bundan tashqari, bu ma'lumotlar turli shakllarda (matn, tasvir, statistik ma'lumotlar, elektron yoki bosma shaklda) mavjud bo'lib, ularni onlayn baza, portal, virtual va real kutubxona, hujjatlar to'plami, ma'lumotlar bazasi, arxivlar, muzeylar va boshqalar orqali olish mumkin. Ammo ushbu axborotning sifati muhim omil sanalib, u «juda yaxshi» dan «juda yomon»gacha farqlanishi mumkin. Demak, axborotni saralash asosida uning iste'molchiga xatto, o'zi tushunmagan holatda ham qadrliligi yotadi. Axborot manbasini baholashda, avvalo, inson axborotni nima maqsadda olayotganini aniqlash zarur. Mazkur jarayon ishonchli axborot manbalarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, quyidagi savollarga javob topishga harakat qilish joiz: konkret holat uchun axborotning qanday manbai yoki qanday turdagi manba eng ishonchli hisoblanadi, qanday manbalarning xolis, betaraf, yashirin ma'nosi bo'lmagan va sifat nazoratidan o'tgan bo'lish ehtimoli ko'proq? Qaysi manbalar haqqoniy, xolis bo'la oladi? Axborot manbasi, odatda, ijtimoiy ahamiyatga molik (ya'ni, keng ommaga qiziq va kerak bo'lgan) axborotga ega bo'lgan shaxs yoki tashuvchidir. Axborot manbalari an'anaviy (rasmiy manbalar, ya'ni hujjatlar, ommaviy axborot vositalari materiallari, hukumat qarorlari, hayotning o'zi va hokazo) va noan'anaviy («ishonch telefonlari», ijtimoiy sog'lomlashtirish markazlari, ikkilamchi xomashyo, shisha qabul qilish, mashina yuvish va yonilg'i quyish shahobchalari, bozorlar va hokazo) ga ajratiladi. Shuningdek, axborot manbalari uch toifaga bo'linadi.

Birlamchi manbalar — bu original manbalar bo'lib, ular axborotni izohlamaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, original san'at asarlari, qo'lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar, shaxsiy maktublar, og'zaki hikoya - intervyu yoki diplomatik hujjatlar bo'lishi mumkin. Aksariyat holatlarda va muayyan vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkilamchi manbalar sifatida axborotni yetkazib beruvchilar maydonga chiqadi. Bu holatda axborot o'zgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki ma'lumotlar talqini). Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham o'zida nufuzli yoki xolis axborotni mujassam etmaydi. Axborotni sub'ektiv baholash holatlarini tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin.

Uchlamchi manbalar — bu tashkil etilgan va o'zida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o'zida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qo'llanmalar, ensiklopediyalar, ko'rsatkichlar, xronologik jadvallar, ma'lumotlar bazasi) manbalardir.

Axborot borasida savodxon insonlar qo'yidagi tayanch ko'nikmalarga ega bo'ladilar: tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qila bilish va undan o'z fikrini bayon etishda foydalanish, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, davlat faoliyati va jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlarda ishtirok etish, xabardor fuqaro va o'z kasbining ustasi bo'lishga tayyor bo'lish. Axborot borasida savodxon insonlar odob-axloq qoida va me'yorlariga tayangan holda

axborotni qanday to'plash, undan foydalanish, uni sintezlash va tashkil etishni yaxshi biladilar. Mazkur kompetensiyalar har qanday o'quv jarayoni kontekstida, shu jumladan, ta'lim va kasbiy muhitga yoki o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan tatbiq qilinishi mumkin. Axborot savodxonligi o'z ichiga quyidagi ko'nikmalarni oladi:

- axborotga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash-anglash: menga nima kerak? Qanday muammoni hal qilishga urinyapman?
- axborot manbalarini aniqlash: qaysi axborot manbalaridan foydalangan ma'qul: Internet ma'lumotlari, kitoblar yoki televideniedanmi? Birlamchi, ikkilamchi yoki uchlamchi manbalarining qaysi biridan foydalanish kerak?
- axborot manzilini aniqlash va izlash: axborotni qaerdan izlagan ma'qul? Yordam olish uchun kimga murojaat qilish kerak?
- axborot sifatini tahlil qilish va uni baholash: axborotning ishonchliligi va haqqoniyligini aniqlash.
- axborotni saralash, saqlash va arxivlash: bir nechta axborot manbalaridan olingan axborotni qanday qilib samarali tashkil etish mumkin?
- axborotdan etikaga (odob-axloq me'yorlariga) rioya qilgan holda samarali foydalanish: Axborot yaratuvchilarining mualliflik xuquqlari buzilmasligi uchun qanday harakat qilishim kerak?
- yangi bilimlarni yaratish va ulashish: Axborotni qanday taqdim etish mumkin? Axborot borasida savodxon inson axborot izlash jarayonini o'z vaqtida to'xtatishni ham biladi. Mavjud barcha ma'lumotlarni to'plab bo'lmaydi. Axborot borasida savodxonlik yetarli darajada ma'lumot to'plangan va hali qayta ishlanmagan ma'lumot manbalari ko'p bo'lishiga qaramasdan, olingan yangi ma'lumot o'zlashtirilmaydigan, to'yinish nuqtasiga erishilgan paytni aniqlash imkoniyatini beradi.

«Media» atamasi (lotincha— medium, ya'ni vosita, vositachi, usul) turli ko'rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositasini anglatadi. Media tushunchasiga axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi hamda mualliflar va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinuvining texnik vositalari kiradi. Bugungi kunda media atamasidan OAV yoki mass-media tushunchalarining sinonimi sifatida foydalaniladi. Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta'siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlariga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda.

Shu bilan birga boshqa manbalarda ham media atamasiga shu tarzda tavsiflar berilganini ko'ramiz. «Media — ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo'ljallangan ko'ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo'naltirilgan ko'p sonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir». Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o'zagida aynan ushbu tavsifni ko'radi. Shunga qaramasdan, mazkur atamaning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axborot muhiti sifatida aynan OAVni, boshqalari esa — aniq axborot tashuvchini nazarda tutadi. Kommunikatsiya kanali sifatida medialar sirasiga mutaxassislar bosma nashrlar, elektron OAV, shu jumladan, Internet, reklamani tashqi vositalari va b. ni kiritadi»¹.

Mediasavodxonlik o'z ichiga quyidagilarni oladi: – estetik va kreativ ko'nikmalar mediakontentni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin etish qobiliyatini bildiradi. Mediakontentni yaratish orqali o'quvchi mazkur ko'nikmalarni o'zida shakllantirishi mumkin. – interfaollik ko'nikmalari media orqali muloqot qilish va turli media-rollarni bajarib ko'rish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur ko'nikmalarni ta'lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin. Interfaollik ko'nikmalari o'z fikri va qarashlarini ifoda etishga tayyorligini ko'rsatadi. – tanqidiy tahlil ko'nikmalari turli tahliliy vositalardan foydalangan holda turfa xil mediakontentni talqin qila olish va ahamiyatini tushunishni bildiradi. Ushbu ko'nikmalar rang-barang mediakontent va janrlarni o'rganish orqali yaxshiroq rivojlanadi; – xavfsizlik ko'nikmalari murakkab vaziyatlardan chiqish va ularning oldini olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Virtual makondan xavfsiz foydalanish, shaxsiy makonni himoya qilish hamda zararli kontent va muloqotdan voz kechishni nazarda tutadi.

Mediasavodxonlik insonning jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Media va axborot savodxonligining asosiy unsurlari Media va axborot savodxonligi — «soyabon», ya'ni bir tushuncha mazmunida ikki ma'no birlashgan atama sifatida YuNESKO tomonidan tavsiya etilgan. Uning mohiyatini anglash uchun har bir tushuncha o'zagini bilish zarur. Har bir atamaning mohiyatidan kelib chiqqan holda ularning tavsifi quyidagicha keltiriladi. Axborot savodxonligi — axborotni tanlash, baholash, qayta ishlash va uzatish borasidagi ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi. Ular quyidagilardan iborat:

- Axborot ehtiyojlarini aniqlash va shakllantirish;
- Axborotni izlash va unga egalik qilish;
- Axborotni baholash;
- Axborotni tizimlashtirish;
- Axborotdan axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanish;
- Axborotni uzatish;
- Axborotni qayta ishlash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalaridan foydalanish.

Axborot savodxonligi axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini e'tirof etadi.

Mediasavodxonlik— mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo'yicha ko'nikmalar va malakalar majmuini bildiradi, jumladan

- demokratik jamiyatda medianing roli va funksiyalarini tushunish;
- media o'z funksiyalarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlarni tushunish;
- mediakontentini uning funksiyalari nuqtai nazaridan tanqidiy baholash;
- media vositasida o'z fikrini bayon etish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish uchun o'zaro hamkorlik qilish;
- foydalanuvchi kontentini yaratish uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalar ni faollashtirish.

Mediani ifoda etish shakllari va vositalari muntazam ravishda rivojlanib bormoqda. Demak, media va axborot savodxonligi ko'nikmalari ham uzluksiz tarzda takomillashib borishi lozim. To'g'ri, bitta inson media va axborot savodxonligiga oid barcha ko'nikmalarni egallashi qiyin masala, biroq har bir inson o'z ko'nikmalarini uzluksiz yangilab borish uchun mas'uldir.

Media va axborot savodxonligiga oid ko'nikmalarimizni faol namoyon qilganimiz sayin media va ularning tuzilmalarining mohiyatini yana ham chuqurroq tushunamiz. Media va axborot savodxonligiga oid shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirishning eng yaxshi usuli — boshqalar bilan media borasidagi o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Viner I. Kibernetika i obshchestvo. — M.: IL, 1958. — S. 31.
2. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonuni. Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. — T.: Adolat, 2008.
3. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya. //www.un.org. 13. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. // www.un.org. 14.
4. B. Namazov, M. Fayzieva, Sh. Sharofaddinov. Media va axborot savodxonligi: o'quvchilar uchun o'quv qo'llanma. 1-chi nashr. – T.: Baktria press, 2017 – 140 b.